

Muqaddas qadamjolarga sayohat

Yangi o'quv yilida "Yer resurslarini boshqarish" fakultetida o'qishga kirgan talabalar soni 300 nafarni tashkil qilib, 15 ta guruhlariga bo'lindi. Ularga guruh murabbiylari tayinlanib, har bir guruh murabbiy guruh talabalarini institut bilan tanishtiruv darslari o'tildi. Birinchi kurslarga institutning oliy talim muassasasining odob-axloq qoidalari to'g'risidagi to'plamlar, institutning tarixi to'g'risida ma'lumotlar tarqatildi. Mustaqil darsliklar o'tildi. Institutning ichki tartib qoidalari to'g'risida tushunchalar berildi. Shuningdek, fakultet guruh murabbiylar guruh talabalarini bilan poytaxtimizdagi barcha qadamjolar ziyorat joylari hamda muzeylarga sayoxatlar uyushtirishdi. Hafta mobaynida Botanika bog'i, O'zbekiston san'at galereyasi, O'zbekiston Milliy kutubxonasi, O'zbekiston tarixi muzeyi, Adiblar xiyoboni, Islom Karimov muzeyi, Toshkent siti majmuasi, Olimpiya shon-shuxrat muzeyi, Humo Arena, Temuriylar muzeyi, Politexnika muzeyi, Qurolli kuchlar muzeyi, Islom sivilizatsiyasi markazi, Qatag'on qurbonlari muzeyi, Xalq amaliy san'ati muzeyi muzeylariga tashrif buyurishdilar. Tashrifdan maqsad yoshlarni o'z tarixini bilish, milliy va umumbashariy qadriyatlarimizni avaylab asrash kabi insoniy mehr-muhabbatni qalbiga mustahkamlashdir.



TIQXMMI matbuot xizmati